



**Fuqarolik sud ishlarini yuritishda advokatning protsessual
maqomi va uning huquqiy asoslari**

Mallayev Normamat Ramazonovich

Yuridik fanlari nomzodi, dotsent

Mo'minov Toshmurod Ochildi o'g'li

Termiz davlat universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasining fuqarolik sud ishlarida advokatning protsessual maqomi Konstitutsiya, "Advokatlik faoliyati to'g'risida"gi Qonun hamda Fuqarolik protsessual kodeks normalari asosida yoritilgan. Advokatning vakil sifatida fuqarolik ishlari bo'yicha sud jarayonida ishtirok etish huquqlari, vazifalari va ularning huquqiy asoslari tizimli tahlil qilingan. Maqolada advokatning shaxs huquq va erkinliklarini himoya qilishdagi o'rni, sud muhokamalaridagi protsessual huquqlari, kasbiy mustaqilligi va etik tamoyillari yoritilgan. Shuningdek, Konstitutsiyada belgilangan sud himoyasi huquqi va adolatli sudlov tamoyillari asosida advokat ishtirokining muhimligi ko'rsatib o'tilgan. Mazkur maqola orqali advokatning fuqarolik sud ishlaridagi maqomini yanada mustahkamlash va amaliyotni takomillashtirish bo'yicha takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: (O'zbek tilida): advokat, sud muhokamasi, huquqiy maqom, Konstitutsiya, inson huquqlari, huquqiy himoya, xalqaro huquq, fuqarolik sudlov ishi



Abstract: This article examines the procedural status of lawyers in civil court proceedings in the Republic of Uzbekistan, based on the Constitution, the Law “On Advocacy,” and the Civil Procedure Code. It provides a comprehensive analysis of the rights and obligations of lawyers as legal representatives in civil cases. The paper emphasizes the lawyer’s role in protecting individual rights and freedoms, as well as their procedural rights, professional independence, and ethical duties. Special attention is given to the constitutional principles of the right to legal defense and fair trial, which underscore the importance of lawyers’ participation in judicial processes. The article also proposes recommendations for strengthening the role of lawyers in civil proceedings and improving legal practice in this area.

Keywords: attorney, court proceedings, legal status, Constitution, human rights, legal defense, international law, civil litigation

Mamlakatimizda sud-huquq tizimini isloh qilish jarayonida fuqarolarning sud orqali huquq va manfaatlarini himoya qilish imkoniyatlarini kengaytirish muhim yo‘nalishlardan biri sifatida e’tirof etilgan. Bu jarayonda advokatlarning, ayniqsa fuqarolik sud ishlaridagi ishtirokining samarali tashkil etilishi alohida o‘rin tutadi.

Advokat fuqarolik sud ishlarida yuridik bilimga ega bo‘lmagan shaxslarga professional yordam ko‘rsatish, sudda ularning huquq va manfaatlarini malakali himoya qilish, ularni vakillik asosida ifodalash orqali adolatli sud qarorlarining qabul qilinishiga ko‘maklashadi. Aynan shu sababli, advokatning fuqarolik protsessidagi ishtiroki — faqatgina texnik vakillik emas, balki konstitutsiyaviy huquqlarni amalda ro‘yobga chiqarish vositasidir.

Shu bilan birga, amaliyotda advokatlarning huquqiy maqomi, ularning protsessual imkoniyatlari, sudlardagi ishtirok shakllari va ularning tartibga solinishi bo‘yicha ba’zi



noaniqliklar, tafsillar va cheklovlar mavjud. Bu esa sud jarayonining shaffofligi, adolatligi va fuqarolarning teng huquqli ishtirokini to'liq ta'minlashga to'sqinlik qilishi mumkin.

Fuqarolik sud ishlarining adolatli va qonuniy ko'rib chiqilishini ta'minlashda professional yuridik yordam ko'rsatadigan shaxs — advokat muhim o'rin tutadi. O'zbekiston Respublikasi fuqarolik protsessual qonunchiligiga muvofiq, advokat fuqarolik huquqiy munosabatlar doirasida taraflarning manfaatlarini ifodalash va himoya qilish huquqiga ega. Shu bilan birga, advokatning protsessual maqomi, vakolat doirasi va faoliyati tartibi bevosita sud muhokamasining sifati va taraflarning teng huquqliligini ta'minlash bilan uzviy bog'liqdir.

O'zbekiston Respublikasida fuqarolik sudlari huquqiy nizolarni hal qilish, fuqarolarning buzilgan yoki tortishilayotgan huquq va qonuniy manfaatlarini tiklash, ularning sud orqali adolatli himoyasini ta'minlash maqsadida faoliyat yuritadi. Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlar o'z vakolatini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Fuqarolik protsessual kodeksi hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlar asosida amalga oshiradi.

Fuqarolik sudlarida quyidagi toifalardagi ishlarni ko'rib chiqadi:

- Fuqarolik-huquqiy munosabatlardan kelib chiquvchi nizolar – mulkiy va nomulkiy huquqlar bilan bog'liq masalalar (masalan, mulk ustidan da'volar, qarz undirish, zarar to'lash, ijara munosabatlari, meros huquqi bo'yicha nizolar va boshqalar);
- Oilaviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlar – nikohni bekor qilish, aliment undirish, ota-onalik huquqini tiklash yoki cheklash, farzandni vasiylikka olish va boshqa masalalar;
- Mehnat va ijtimoiy ta'minot munosabatlari bo'yicha nizolar – xodimni ishdan bo'shatish, ish haqi undirish, pensiya tayinlash va h.k.;



- Notarial, kadastr, fuqarolik holati dalolatnomalariga oid nizolar – davlat organlarining qarorlarining yoki harakatlarining (harakatsizligini) ustidan shikoyat qilish, rasmiy qarorlarni bekor qilish;
- Sud buyrug‘i tartibida ko‘riladigan ishlar – qarz undirish yoki boshqa talablar bo‘yicha oddiy protsessual tartibda ko‘riladigan ishlar;
- Maxsus da’vosiz tartibda ko‘riladigan ishlar – masalan, vasiylik va homiylikni o‘rnatish, bedarak yo‘qolgan yoki vafot etgan deb e’lon qilish, tug‘ilganlik yoki o‘lim faktini tasdiqlash kabi holatlar.

Fuqarolik sudlari tomonidan ishlar umumiy yurisdiksiya asosida yuritiladi, ya’ni ular fuqarolar o‘rtasidagi nizolarni bevosita qonun asosida hal qiladi. Shu nuqtai nazardan, sud jarayonining qonuniy, xolis va adolatli bo‘lishi katta ahamiyatga ega bo‘lib, bunda taraflarning huquqiy manfaatlarini to‘laqonli himoya qilish imkoniyatiga ega bo‘lgan mutaxassis – advokatning ishtiroki zarur bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko‘ra, advokat fuqarolik sud ishlarida mustaqil protsessual subyekt sifatida ishtirok etadi. U taraflarning huquq va qonuniy manfaatlarini ifodalash va himoya qilishda asosiy ishtirokchilardan biri sanaladi. Advokatning ushbu maqomi va vakolatlari O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi, “Advokatura to‘g‘risida”gi Qonuni, shuningdek, Advokatlarning o‘doba’xloq qoidalarini bilan tartibga solinadi.

Advokatning protsessual maqomi

Advokat fuqarolik ishlarida ishtirok etayotgan shaxs nomidan sudda vakil sifatida qatnashadi. U ishtirok etayotgan holatda:

- sudga da’vo arizasi yoki boshqa protsessual hujjatlarni topshirish;
- sud muhokamalarida qatnashish, dalillar keltirish va e’tiroz bildirish;



huquqiy maslahatlar berish;

boshqa protsessual huquqlardan foydalanish imkoniyatiga ega.

Fuqarolik protsessual kodeksining 54-moddasiga ko‘ra, advokat — ishtirok etayotgan taraflar vakili sifatida ariza bilan birga o‘z vakolatini tasdiqlovchi hujjatlarni (ishonchnoma, litsenziya nusxasi) sudga taqdim etishi lozim.

Advokatning sudda ishtirokining huquqiy asoslarini belgilaydigan huquqiy hujjatlarning har biri uning faoliyatining alohida yo‘nalishini tartibga solishga xizmat qiladi. Jumladan:

- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – har bir shaxsga malakali yuridik yordam olish huquqini kafolatlaydi;
- Fuqarolik protsessual kodeksi – advokatning vakillik huquqi, protsessual huquqlari va majburiyatlari aniq belgilangan;
- “Advokatura to‘g‘risida”gi Qonun – advokatlik faoliyatining umumiy prinsiplari, huquqlari, mustaqilligi, mijoz bilan munosabatlari va etik talablar bayon qilingan;
- Advokatlarning odob-axloq qoidalari – advokatlarning suddagi xatti-harakati va etik mezonlarini belgilaydi.

Fuqarolik sudlarida advokatning asosiy vazifalaridan biri — mijozning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdir. Ushbu vazifani amalga oshirishda advokatning roli faqatgina vakillikda emas, balki tarafning sud jarayonidagi huquqlarini to‘liq ta‘minlashga qaratilgan faoliyatni o‘z ichiga oladi. Advokatning huquqiy himoyasi va suddagi qatnashishi, ayniqsa, fuqarolar uchun huquqiy adolatni ta‘minlashda bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Fuqarolik sudlarida advokat mijoz nomidan ishtirok etar ekan, uning nomidan quyidagi huquqlarni amalga oshiradi. Jumladan,

1. Sudda fuqarolik pozitsiyasini taqdim etish va asoslash



Advokat sudda mijozning pozitsiyasini taqdim etadi va asoslaydi. U fuqaroning huquqiy holatini va jarayondagi ishtirokini, shuningdek, talablarni batafsil ravishda tushuntiradi. Advokat bu jarayonda quyidagi masalalarni hal qiladi:

- Fuqarolik aloqalaridagi nizolarni aniq aniqlash va ularni qonuniy mezonlarga mos ravishda talqin qilish.
- Mijozning da'vosini yoki e'tirozini samarali tarzda ifodalash.
- Huquqiy manfaatlarni himoya qilish uchun zarur bo'lgan dalillarni taqdim etish.

2. Mijozning huquqlarini himoya qilish va ularning buzilishiga yo'l qo'ymaslik

Advokat sudda mijozining huquqlarini himoya qilishda maxsus vakolatga ega bo'lib, shuningdek, uning huquqlarini buzilishiga yo'l qo'ymaslikka alohida e'tibor beradi. U quyidagi vazifalarni bajaradi:

- Sud jarayonida barcha protsessual huquqlarga rioya qilishni ta'minlash.
- Mijozning qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun barcha protsessual imkoniyatlarni ishga solish.
- Sudning o'zgarishsiz yoki xato qarorlar qabul qilishining oldini olish, shikoyat va e'tirozlarni taqdim etish.

3. Dalillarni taqdim etish va ekspertizadan foydalanish

Advokatning eng muhim vazifalaridan biri — sudda to'plangan dalillarni taqdim etishdir. Bunda advokat quyidagi amallarni bajaradi:

- Mijozga foydali bo'lgan hujjatlar, guvohlar, ekspertiza xulosalarini taqdim etish.
- Dalillarni sudda qonuniy ravishda tahlil qilish va baholash.
- Zarur holatlarda ekspertizadan foydalanish va ilmiy-bilimli tushuntirishlar kiritish.



4. Sud qarorining qonuniyligini tahlil qilish va uning o'z vaqtida ijro etilishini ta'minlash

Advokat sud qarori qabul qilingandan so'ng, uning qonuniyligini tahlil qilish va kerakli holatlarda yuqori instansiya sudlariga shikoyat qilish huquqiga ega. Shu bilan birga, advokat mijozning manfaatlarini himoya qilish davomida:

- Sudning noto'g'ri qarorlarini apellyatsiya, kassatsiya tartibida ko'rib chiqilishi uchun yuqori instansiya sudlariga shikoyat berish.
- Sud qarorining bajarilishi, majburiyatlarning amalga oshirilishini ta'minlash.

Advokatning sudda fuqaroning huquq va manfaatlarini himoya qilish vazifasi uning yuridik mahorati, tajribasi va qonunlarga bo'lgan chuqur bilimiga tayanadi. Advokat faqat vakil emas, balki tarafning huquqlarini himoya qilishda faol ishtirok etuvchi himoyachi sifatida ko'riladi. U sud jarayonining adolatli va qonuniy asosda rivojlanishini ta'minlaydi, mijozining manfaatlarini har tomonlama himoya qiladi va sud qarorlarining qonuniyligini nazorat qiladi.

Fuqarolik ishlarini ko'rib chiqish jarayonida advokatlarning roli qonuniy jihatdan aniq belgilangan bo'lsa-da, amaliyotda ushbu tartiblarning to'laqonli amalga oshirilishida bir qator muammolar va to'siqlar mavjud. Bu holatlar nafaqat advokat faoliyatiga, balki sudlarda adolatning to'liq ta'minlanishiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Quyida ushbu muammolarning har biriga alohida to'xtalib o'tamiz:

1. Advokatga hujjatlar va ish materiallariga to'laqonli kirish imkoniyatining cheklanishi - ba'zi hollarda advokatlarga sud hujjatlari yoki ish materiallari bilan tanishishda sun'iy to'siqlar qo'yiladi. Masalan:

- Ish materiallari nusxalarini olishning kechiktirilishi.
- Sud kotiblari tomonidan asossiz rad etishlar.



- Elektron sud tizimining to'liq ishlamasligi sababli hujjatlar bilan tanishish qiyinligi.

Bu muammolarning mavjud bo'lishi advokatning himoya strategiyasini to'liq shakllantirishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi va taraflarning huquqlarining to'laqonli himoyasini amalga oshirishga to'sqinlik qilishi mumkin.

2. Advokat fikrining sud tomonidan yetarlicha e'tiborga olinmasligi - amaliyotda ba'zida sudlar advokatlarning dalillarni baholashga doir fikrlarini e'tiborsiz qoldiradi yoki ularni yetarlicha asoslanmagan deb hisoblaydi. Natijada:

- Advokat tomonidan ilgari surilgan dalillar e'tiborga olinmaydi.
- Sud qarorlari bir tomonlama qabul qilinadi.
- Mijozning qonuniy manfaatlariga putur yetadi.

Bu muammo sudlov jarayonining betaraflik va adolatlilik tamoyillariga zid bo'lib, advokatning suddagi real rolini pasaytiradi.

3. Advokat faoliyatiga aralashuv va bosimlar - ayrim hollarda advokatlar sud yoki boshqa taraflar tomonidan bosimga uchrashi mumkin. Bu holatlar quyidagicha namoyon bo'ladi:

- Sud tomonidan advokatga nisbatan protsessual cheklovlar qo'yilishi.
- Advokatni sud majlisida fikr bildirishdan cheklash.
- Murojaatlarga asossiz javob bermaslik yoki surishtiruvsiz rad etish.

Bu turdagi holatlar advokat mustaqilligiga putur yetkazadi va himoya huquqining asosiy tamoyillaridan biri — advokat faoliyatining erkinligini buzadi.

4. Advokatlar tomonidan malaka yetishmasligi yoki loqaydlik - amaliyotda ba'zan advokatlarning o'z vazifasiga loqayd munosabati, tayyorgarlikning sustligi yoki yetarli bilim va tajribaning yo'qligi sababli mijoz manfaatlari to'liq himoya qilinmaydi. Bu holat quyidagilarga olib keladi:



- Sudda zaif pozitsiya bilan chiqish.
- Dalillarning to'g'ri taqdim etilmasligi.
- Protsessual huquqlarning yetarli darajada qo'llanmasligi.

Advokatlik faoliyatining samaradorligi, avvalo, yuridik bilim, malaka va kasbiy mas'uliyatga bog'liq. Ushbu jihatlar sust bo'lsa, bu bevosita fuqarolarning adolatga bo'lgan ishonchiga ta'sir qiladi.

5. Himoya tizimining institutsional muammolari - advokatlar palatasi yoki boshqa organlar tomonidan advokatlarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining zaifligi ham ta'kidlanishi lozim bo'lgan muammo hisoblanadi:

- Amaliy yordam va o'quv dasturlarining yetarli emasligi.
- Advokatlar huquqlarining buzilishiga nisbatan tezkor choralar ko'rilmassligi.
- Advokatlarning sud tizimida o'zaro muvofiqlashuvining sustligi.

Bu muammo advokatlik institutining umumiy darajasini pasaytiradi va jamiyatdagi huquqiy madaniyat rivojiga to'siq bo'ladi.

Fuqarolik huquqiy munosabatlarda advokat ishtirokini samarali tashkil etish, nafaqat fuqarolar huquqlarining kafolatlanishini, balki sudlarda adolatning to'liq va ishlarning shaffof bo'lishini ta'minlaydi. Biz yuqorida tahlil qilingan muammolarni e'tiborga olgan holda quyidagi takliflar ilgari surishni to'g'ri deb topdik:

1. Advokatlarning sud hujjatlariga to'liq va o'z vaqtida ega bo'lish huquqini ta'minlash

- Elektron sud tizimlarida advokatlar uchun alohida ochiq platformalar yaratish.
- Sud ish yurituvining shaffofligini oshirish va protsessual huquqlarning buzilishiga qarshi sanksiyalar belgilash.



2. Advokatlar faoliyatining mustaqilligini himoya qilish

- Advokatlarga nisbatan har qanday bosim yoki aralashuv holatlarini oldini olish bo'yicha aniq mexanizmlarni ishlab chiqish.
- Advokatlar palatasi va Oliy sud o'rtasida muvofiqlashtiruvchi aloqalarni mustahkamlash.

3. Advokatlarning malaka va kasbiy tayyorgarligini oshirish

- Yangi advokatlar uchun amaliyotga yo'naltirilgan stajirovka dasturlarini joriy etish.
- Davlat granti asosida malaka oshirish kurslarini tashkil etish, xorijiy tajribalarni o'rganish imkoniyatlarini yaratish.

4. Advokatlik faoliyatining institutsional qo'llab-quvvatlanishini kuchaytirish

- Advokatlar palatasi faoliyatini moliyaviy va tashkiliy jihatdan mustahkamlash.
- Advokatlar huquqlarini buzgan sud yoki protsessual shaxslar javobgarligini kuchaytirish.

Xulosa:

Fuqarolik sud ishlarida advokatning ishtiroki — bu shunchaki vakillik emas, balki adolatni qaror toptirishning muhim kafolatidir. Advokatlar huquqiy bilim va tajriba asosida mijoz manfaatlarini himoya qilish orqali sudlov tizimining sifatli ishlashiga xizmat qiladi. Ularning to'liq, erkin va samarali faoliyat yuritishi uchun zarur huquqiy va tashkiliy sharoitlar yaratilsa, bu fuqarolarning sudga bo'lgan ishonchini oshiradi, jamiyatda qonun ustuvorligini mustahkamlaydi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi.
3. “Advokatura to‘g‘risida’gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni
4. Tadjibaeva Sh.T. *Advokatura institutining fuqarolik sud ishlaridagi o‘rni va ahamiyati.* – Toshkent: TDYuI nashriyoti, 2022.
5. Bobojonov R.X. *Fuqarolik sud jarayonida advokat ishtirokini ta’minlashning muammolari.* // "Yuridik fanlar axborotnomasi", №1, 2023.
6. Karimova D.A. *Chet el fuqarolarining O‘zbekistondagi huquqiy maqomi va himoya kafolatlari.* – Toshkent: “Adolat”, 2021.
7. United Nations. *International Covenant on Civil and Political Rights.* – New York, 1966.